

INNOVATSION MOLIYALASHTIRISHNING INVESTITSION MUHITGA TA'SIRI VA O'RNII

Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi

*Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot
fakulteti 4-kurs moliya va moliyaviy
texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion moliyalashtirish tushunchasi, uning zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsion muhitga ta'siri va tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarining samarali qo'llanilishi iqtisodiyotda yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, yangi bizneslarni qo'llab-quvvatlash va umumiy investitsion faollikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi yoritiladi. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi asosida innovatsion moliyalashtirish vositalarining investitsion muhitga ta'siri solishtirma tahlil orqali ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekiston misolida amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion moliyalashtirish, investitsion muhit, ventur kapital, startaplar, moliyaviy vositalar, raqamli iqtisodiyot, davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy innovatsiyalar

Hozirda milliy iqtisodiyot, hududiy ishlab chiqarishni investitsiyalar asosida modernizatsiya qilish sharoitida innovatsiyalar transferti va moliyalashtirish mexanizmlari samarasini oshirish ob'ektiv zaruratga aylandi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi bo'lib faqat ishlab chiqarish omillari va investitsiyalar asosida iqtisodiy rivojlantirish emas, balki ular bilan birga ko'proq innovatsiya faoliyati faolligini oshirish asosida kelajakda innovatsion iqtisodiyot modeliga o'tish lozimdir.

Bu modelning asosiy maqsadi – milliy iqtisodiyotning barqaror raqobatbardoshligini samarali texnologiyalar qo'llash va innovatsiyalar vositasida oshirish, investitsiyalar va innovatsiyalarning ichki va tashqi bozorlarini rivojlantirish va ularga erkin chiqishni ta'minlash yo'li bilan import mahsulot o'rnini egallash va eksportga yo'naltirilgan investitsion muhitda innovatsion rivojlanish iqtisodiyoti tizimiga o'tishdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratish, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirish uchun ortiqcha byurokratik va ma'muriy tartibtaomillarga chek qo'yishga doir bir qancha ishlar yo'lga qo'yilgan. Milliy

iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda zamonaviy ilg'or texnika va texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifani samarali hal etish uchun esa iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish talab qilinadi.

Ma'muriy-hududiy organlar investitsion jarayonlarni rag'batlantirishi, tartibga solishi va hudud iqtisodiyotiga zarur bo'lgan investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlarni shakllantirishi lozim. Muayyan muddatli istiqbolda hududiy investitsion dasturlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarining ozayishiga olib keladi, albatta. Bularning barchasini faqatgina hudud holatini majmuaviy, tizimli baholash va ularning zaif tomonlarini aniqlash yordamida amalga oshirish mumkin.¹

Investitsiya muhiti (yoki investitsion muhit) – juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Investor tomonidan ma'lum bir davlatga investitsiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi.

Investitsiya muhitining har tomonlama, chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya tavakkali aniqlanadi. Investitsiya muhiti va tavakkal darajalari bir-birlariga teskari nisbatdadir. Ya'ni investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik tavakkali shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko'paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, tavakkal darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomonning sarf-xarajatlari o'sishiga olib keladi.² Investitsiya muhiti ob'yektiv kategoriya bo'lib, u o'zida har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo'lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Xususan, davlat hokimiyatining ta'sirchanligi investitsiya muhitini aniqlovchi omillardan biridir. Shundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma'lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta'kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me'yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o'z ichiga oladi. Xorijiy kapitalni qabul qilish tizimi investitsiya muhitining komponenti bo'lib xizmat qiladi va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi.


Chunki u investitsiya muhitini o'zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonni xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon etsa, investitsiya muhiti kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o'sib borish vaziyatiga baho beradi. Investitsiya

¹ Ш.И.Мустафакулов. Инвестицион мухит жозибadorлиги: назария, методология ва амалиёт.(Монография). Тошкент «МАЪНАВИЯТ» 2017. 21 бет.

² Пинали Э. Инвестиционный климат и частный сектор. // Экономическое обозрение. 2005., №9, 42–43-бетлар.

muhiti iqtisodiyotda yangi tushuncha emas, ammo mustaqil O'zbekiston sharoitiga nisbatan alohida ishlab chiqilmagan.³

Bizning fikrimicha, investitsion muhit – investitsion jarayonlar amalga oshadigan sharoit bo'lib, u hududning investitsion faoliyati hamda investitsiyalarning risk darajasini aniqlaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi. Ijobiy investitsion muhitni yaratish masalasida iqtisodiyotning globallashuvini asosiy jarayon sifatida talqin qilish va buning natijasida investitsion resurslarga ega bo'lish ko'lamining kengayishini, o'z navbatida esa, investorlar o'rtasida ham raqobatning kuchayishini nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Agar biz chetdan keladigan xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishni istasak, albatta, investitsion muhitni, hududiy shart va sharoitlarni boshqalarga (raqobatchilarga) qaraganda yanada maqbul va yuqori darajaga chiqarishni, shuningdek, ichki (milliy) investitsiyalarni faollashtirish uchun ham «iqlim»ning qulay va ortiqcha riskdan holi bo'lishini ta'minlashga e'tibor qaratishimiz zarur. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar xilma-xil va turlichadir. Mamlakatdagi investitsiya muhitiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi va asosiylari 1.1-rasmda ko'rsatib o'tilgan.



1.1-rasm. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar⁴

Hozirgi kunda mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash uchun bank tizimining barqarorligini ta'minlash muhim ustuvor vazifa qilib belgilangan. Mamlakatdagi bank tizimining barqarorligi birinchi navbatda tijorat banklarning samarali faoliyatiga bog'liq. Mamlakatimizda tijorat banklari kreditlash faoliyatining rivojlanishi natijasida birgina 2020 yilda iqtisodiyot tarmoqlariga 276975 mlrd.so'm

³ Хамроев Х.Р. Зонал сиёсат: методология, хорижий тажриба ва қўллаш йўналишлари. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти, 2008.

⁴ Хидиров Н.Г. Саноат корхоналарида инвестицион фаолиятни молиялаштириш механизмини такомиллаштириш. Икт.фанлари бўйича (PhD) диссертацияси автореферати. Т.:2021. 15-бет.

kreditlar ajratilgan, shundan 36,9 %i yoxud 102162 mlrd.so`mi sanoat tarmog`iga yo`naltirilgan (3-rasm).

Ta`kidlash joizki, globallashuv jarayonida tijorat banklari yetarli kapitalga ega va moliyaviy barqaror bo`lishi, ular yirik investitsiya institutlariga aylanishi darkor. To`qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining xom ashyoga bo`lgan talabini uzliksizligini ta`minlash maqsadida tijorat banklariga paxta xom ashyosini yetishtirish va yig`ib olishni moliyalashtirish uchun xorijiy kredit liniyalarini jalb qilinishi hozirgi kunda dolzarb vazifalardandir. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan yengil sanoat tarmog`iga 2019 yil 1633,7 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag` jalb qilingan bo`lsa, 2020 yil bu raqam 2139,0 mln. AQSh dollariga teng bo`ldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarishning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham, hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo`naltirishda ilmiy asoslangan holda ish tutish, kapital sarmoyalarning qaytishini jadallashtirish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik jihatlariga e`tibor qaratish hamda investitsiya mablag`larining tarmoq va soha taqsimotiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish muhimdir. Investitsiyalarni boshqarish jarayoni murakkab bo`lib, bunda barcha omillarni hisobga olish lozim. Fikrimizcha investitsiyalarni boshqarish bu – qabul qilingan strategiya asosida investitsion faoliyatni doimiy ravishda amalga oshirish va resurslar bilan ta`minlanganlik ustidan investorlarning (davlat, korxona, xorijiy sarmoyador, fuqaro) nazoratidir.

1

• **Davlat nuqtai-nazardan investitsiyalarni boshqarish**

- Investitsion faollikni tartibga solish;
- Rag`batlantirish;
- Nazorat qilish;
- Qonunchilikni ko`rib chiqish.

2

• **Investitsiya loyihalarini boshqarish**

- Investitsiyalarni rejalashtirish va tashkil etish;
- Investitsiyalarni yo`naltirish;
- Investitsion loyixalarning zamonaviy metodlarini va texnik boshqaruvini amalga oshiradi;
- Investitsion loyihalar natijasini samaradorligini aniqlash;
- Loyihalarining hayotiylik davri

3

• **Alohida xo`jalik sub'ektlari nuqtai-nazardan investitsiyalarni boshqarish**

- Korxonaning investitsiya portfelini boshqarish;
- Korxonaning monitoringi va sifatini boshqarish;
- Qisqa muddatda investitsiya qo'yilmalarini boshqarish

1.2-rasm. Investitsion faoliyatni boshqarish jarayoni.⁵

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, investitsion faoliyatni boshqarish jarayonini guruhlariga bo'lib, ko'rib chiqishimiz mumkin (1.2- rasm). Ushbu rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, investitsiyalarni boshqarish jarayoni bir necha guruhga bo'linadi.

Davlat nuqtai-nazardan investitsiyalarni boshqarish jarayoni bevosita muhim ahamiyatga ega. Bunda davlat asosan qonunchilik va ushbu jarayondagi barcha holatlarni nazorat qiladi. Investitsiya loyihalarini boshqarishda esa, asosan rejalashtirish va tashkil etish hamda loyihaning samaradorligini aniqlashdan iborat. Korxona yoki alohida xo'jalik sub'yektlarida investitsiyalarni boshqarish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Korxonalarda qisqa muddatda kapital qo'yilmasini boshqarish va uni foydaliligini nazorat qilish korxonaning kelajakdagi istiqboliga bog'liqdir.

Boshqaruv sub'yektlari darajasida ushbu funktsiyalar bir-biridan farqli ravishda amalga oshiriladi. Masalan, davlat darajasida investitsion faoliyat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik rivojlanish sohalaridagi boshqarishni o'z ichiga oladi.

Hududlar darajasida investitsiyalarni boshqarish qator funktsiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Hududlarning investitsion faoliyati strategiyasini ishlab chiqish. Bu jarayonda yuqoridagi funktsiyalarni amalga oshirish, hududdagi firmalarni umumiy rivojlanish strategiyasini va investitsion bozor konyukturasini bashoratlash, uzoq muddatli davrda investitsion faoliyatning asosiy yo'nalashlarini shakllantirish, yaqin istiqbolda investitsion faoliyatni eng muhim vazifalarini aniqlash va muammolarni yechishni ko'zda tutadi.

2. Tashqi investitsiya vositalari va investitsiya bozori konyukturasini bashoratlashni tadqiq qilish. Bunda, hudud investitsion faoliyatini amalga oshirishda bir necha funktsiyalar bajariladi. Joriy investitsiya bozori konyukturasini, omillarini aniqlash va tadqiq etish; alohida sohalar nuqtainazaridan investitsiya bozori konyukturasini bashoratlanadi.

3. Hududlarning investitsion resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish. Bu jarayonda investitsiya resurslariga umumiy ehtiyojni bashoratlashni amalga oshirish, alohida bosqichda investitsion strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish, shaxsiy manbalar hisobidan investitsion resurslarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda bu borada boshlang'ich vositalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish nazarda tutiladi. Investitsion resurslarni tuzilishini optimallashtirish jarayonida qarz vositalari va ularning investitsiya bilan

⁵ Исмаилов Д.А. Иқтисодиётда инвестиция жараёнларини бошқаришнинг функциялари, мақсади ва вазифалари “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, май, 2012 йил

munosabatlarini muntazam ravishda ta'minlash, shuningdek, investitsiya manbalarini kengaytirish va kelajakda hududdagi korxonalarning to'lovga qobillilik hamda imkoniyatlarini oshirishni nazarda tutadi.

4. Alohida loyihalarni investitsion jozibadorligini baholash va bularning ichidan eng samaralilarini ajratish. Bu funktsiyalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya bozoridagi joriy takliflarni o'rganish, hudud korxona va firmalarining investitsion strategiyalarini eng samaralilarini baholash va ekspertizadan o'tkazish, har bir investitsion loyihani daromadlilik darajasini va boshqa iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashni ko'zda tutadi.

5. Hududlardagi investitsion portfelni shakllantirish va daromadlilik, tavakkalchilik va likvidlilik mezonlari bo'yicha ularni baholash. Bu funktsiyalar investitsion rusurslar hajmi va ularning daromadlilik ko'rsatkichlarini hisoblash, har bir investitsion loyiha va moliyaviy vositalar bo'yicha tavakkal darajasini hisoblashni nazarda tutadi. Birinchi bosqichda real va moliya investitsiyalar o'rtasidagi mutanosibliklarni investitsiya portfeli asosida shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda esa, eng samarali investitsion loyihalar tanlab olinadi. Uchinchi bosqichda portfellarni to'lovga qobilliligini baholanadi. Investitsion portfelning bunday shakllanish jarayoni joriy davrda yalpi investitsion dasturlar orqali amalga oshiriladi.

6. Hududlarda alohida investitsion dasturlar va loyihalarni tezkor boshqaruvini amalga oshirish hamda joriy rejalashtirish. Bu funktsiyalarni bajarish jarayonida hududlarda turli joriy rejalarni investitsion portfelini shakllantirishni tezkor boshqaruvini ta'minlash va ularni ishlab chiqish nazarda tutiladi. Bu jarayonda alohida investitsion loyihalarni amalga oshirishda kalendar reja va uning byudjeti muhim rol o'ynaydi.

7. Hududlarda alohida investitsion dasturlar va loyihalarni amalga oshirish monitoringini tashkil etish. Bu funktsiyalarni bajarishda boshlang'ich kuzatilgan ko'rsatkichlar tizimi shakllantiriladi, unda alohida investitsion loyihalar va har bir investitsion dasturlar bir-biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Bu jarayonda ma'lumotlar tahlil qilinadi va yig'ilganlarning davriyligi aniqlanadi. Loyihalarni amalga oshirish jarayoniga investitsiyalar samaradorligi, ularning moliyaviy hajmi va loyihalarning muddati ta'sir ko'rsatadi.

8. Hududlarda kapitalni qayta investitsiyalash va samarasiz investitsion loyihalardan voz kechish. Bu davrda hudud investitsiya bozori konyukturasi o'zgarishi, hududdagi kompaniyalarning moliyaviy holati, ulardagi investitsiya portfelini shakllanish jarayonlari, alohida investitsion loyihalar kutilayotgan samaradorligi oqibatlari hisoblab chiqiladi. Bunday sharoitda ushbu investitsion loyihalardan voz kechish yo'llari tanlanadi. Demak, hududlarning investitsion faoliyatini strategik boshqaruvining muhim funktsiyasi bu – hudud investitsion strategiyasini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bunda investitsiya faoliyat yo'lida uzoq muddatli maqsadlarni

shakllantirish tushiniladi va bunda eng samarali investitsion faoliyatga erishish ko`zda tutiladi.


Hududlarning investitsion strategiyasini shakllantirish murakkab jarayon bo`lib, u hudud investitsiya bozori konyukturasini bashoratlashga asoslanadi va investitsiya faoliyati shartlarini amalga oshiradi. Bu jarayonni murakkabligi shundaki, bu davrda hudud investitsiya strategiyalarni shakllantirish, investitsion resurslarni izlab topish, muqobil investitsiya variantlarini baholash bilan birga amalga oshiriladi va u hudud firmalarining imidjini oshiradi va uni rivojlanishi belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday investitsion strategiya tezda o`zgarmaydi, u ushbu hududdagi firmalarning iqtisodiy o`shishining yangi imkoniyatlari va tashqi shartlarini inobatga olgan holda davriy tartibga solishlarni talab etadi.

Hududda investitsion strategiyani shakllantirish shart-sharoitlari korxona va firmalarning iqtisodiy rivojlanishining strategik asosi bo`lib xizmat qiladi. Bundan ko`rinib turibdiki, hudud investitsiya strategiyasi firmalarning samarali rivojlanishini ta`minlaydigan bosh omil bo`lib hisoblanadi va u investitsiyalarni samarali boshqarishga asoslanadi. Hudud korxonalarining investitsion strategiyasini shakllantirish jarayoni birnecha bosqichlarni o`z ichiga oladi.

Boshlang`ich bosqichda hudud investitsiya strategiyasi ishlab chiqiladi va uni shakllantirishni umumiy davri aniqlanadi. U investitsiya bozori va iqtisodiyot rivojlanishini oldindan ko`ra olish, uning davriyligini baholash, korxona va firmalarning asosiy strategiyasini shakllanishi uchun yechimni qabul qilish, ularning tarmoqlarini o`lchami kabi shartlar bilan bog`liqdir.

Investitsion faoliyatni shakllantirish maqsadi kapitalning qo`shimcha o`shish sur`atlarini ta`minlashga, investitsiyalarni daromadlilik darajasini o`shishiga, moliyaviy investitsiyalash va texnologik o`zgarishlarga, kapital qo`yilmalar tuzilishining qayta ishlab chiqilishiga hamda pirovard natijada hududda iqtisodiy o`shishga, aholining turmush darajasining oshishiga erishiladi.

Hududlarda investitsiya resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish korxona va firmalarning nafaqat investitsion faoliyatining unsuri balki, eng muhim moliyaviy strategiyasining unsuri ham hisoblanadi. U belgilangan hajmdagi investitsiya faoliyatini uzluksiz ravishda rag`batlantirishni ta`minlaydi hamda shaxsiy moliyaviy vositalardan eng samaralisidan foydalanadi va uzoq muddatli davrda istiqbolda hududdagi korxona va firmalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Hududlarda bu strategiyalarni ishlab chiqish quyidagi bosqichlar bo`yicha amalga oshiriladi:



3- rasm.Hududlarda investitsion resurslar strategiyasini ishlab chiqish bosqichlar.⁶

Hudud investitsiya strategiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning aniq maqsadlarini va strategik vazifalarini belgilangan tartibda qayta ko`rib chiqish jarayonida tashqi va ichki omillarni bir-biriga moslashtiriladi. Tashqi omillar hudud firmalarining strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ko`zda tutadi, shuningdek, investitsiya bozori konyukturasi o`zgarishlarini bashoratlaydi. Ichki omillar investitsiyalashning alohida yo`nalishlarini amalga oshirishni ko`zda tutadi, shuningdek, bu jarayonda investitsiya resurslarini shakllantiriladi

Xulosa sifatida shuni ta`kidlashimiz lozimki, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida investitsiyalarni boshqarish mexanizmi nazariy jihatdan ko`rib chiqildi, bu esa investitsiyalarni boshqarishning maqsadi va asosiy vazifalarini amalga oshirishda muhim o`ringa egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сахаров, В. Н. (2021). Инновационные финансы и инвестиции: теория и практика. Москва: Финансы и статистика.
2. Назаров, Б. Х. (2022). “O‘zbekiston investitsion muhiti va innovatsion rivojlanish istiqbollari.” Iqtisodiyot va Innovatsiyalar, 4(3), 45–52.
3. OECD (2020). Innovation Finance and Investment Trends. OECD Publishing.

⁶Исмаилов Д.А. Иқтисодиётда инвестиция жараёнларини бошқаришнинг функциялари, мақсади ва вазифалари “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, май, 2012 йил

4. World Bank (2021). Boosting Innovation in Emerging Markets. Washington, D.C.
5. Тошматов, А. Р. (2023). “Innovatsion moliyalashtirishda venchur kapital roli.” Moliyaviy Tahlil Jurnali, 2(1), 12–20.
6. UNCTAD (2022). World Investment Report: International Tax Reforms and Sustainable Investment.
7. Davlat statistika qo‘mitasi (2024). O‘zbekiston investitsion faoliyati statistik ko‘rsatkichlari.

